



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Manzura Hamdamova

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti akademik litseyi o‘qituvchisi

UZLUKSIZ TA'LIMDAGI ISLOHOTLARNING YANGI BOSQICHI

Annotatsiya. Mamlakatimiz ta'lism-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish maqsadida, «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lism-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni hamda «Ta'lism-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarorining qabul qilinishi ta'lism-tarbiya taraqqiyotiga birlamchi e’tibor qaratilayotganining yorqin namunasi bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: islohotlar, funksional savodxon, uzviylik.

Bugun mamlakatimizda malakali, salohiyatli, yosh avlod ta'lism-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilmoxda. Davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ta’lim tizimiga yangicha yondashuv, o‘zgarishlar va islohotlar jarayonidir. Chunki Vatanimizning ertangi taqdiri, istiqboli talaba-yoshlarning bilimi, ta'lism-tarbiyasi va egallayotgan kasb-koriga bog‘liq.

Mamlakatimiz ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish maqsadida, «O’zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni hamda «Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarorining qabul qilinishi ta’lim-tarbiya taraqqiyotiga birlamchi e’tibor qaratilayotganining yorqin namunasi bo‘ldi.

Mazkur hujjatlarda ta’lim sifatini oshirish, ilm-fanni rivojlantirish, bitiruvchilarning bandligini ta’minalash, pedagog xodimlarning faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo‘yicha bir qator hozirgi muammolarni hal qiladigan, yaqin besh yilda natijasini ko‘rsatadigan va taraqqiyot darajasini belgilab beradigan istiqbolli vazifalar belgilab berildi. Hujjatlarda jamiyatda o‘qituvchining obro‘-e’tiborini va maqomini ko‘tarish, o‘quv dasturlari va metodikasini to‘liq qayta ko‘rib chiqish, akademik litseyni ta’limning keyingi bosqichlari bilan uzviy bog‘lash, pedagog xodimlarning oylik maoshini keskin oshirish, ortiqcha qog‘ozbozliklardan xalos etish, o‘z ustida ko‘proq ishlashi uchun sharoit yaratish va shuni rag‘batlantirish, akademik litseydagi ma’naviy muhitni yaxshilash kabi masalalarining yechimlari aniq belgilab berildi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganlaridek: ta’lim muassasasida o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi. SHu sababli, Finlyandiya tajribasini o‘rganib ta’lim tizimiga singdirish va milliy tizimni yaratish choralar ko‘rilmoxda. Umumiy savodxonlik, tabiiy fanlar va matematika funksional savodxonligi bo‘yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

Farmonda birinchi marta ta’lim tizimiga jamiyatning har bir a’zosi mas’ul etib belgilandi va uzviylikni ta’minalash bo‘yicha chuqur o‘ylangan vazifalar belgilab berilgan. Masalan, Farmonda maktablarda zamonaviy boshqaruvni joriy qilish masalalariga ham to‘xtalib o‘tildi. Endi maktab direktorlarini lavozimga tayinlash bevosita mahalliy kengashlar bilan kelishilgan holda, tanlov asosida amalga oshiriladi. Har bir nomzod maktabning ko‘rsatkichlarini kelgusi 3 yilda yuqori darajaga olib chiqish bo‘yicha o‘z dasturi bilan tanlovda ishtirok etadi va har yili kengashlar oldida hisobot beradi. Maktablarning samarali faoliyatini tashkil etish, direktorlar ishiga noqonuniy aralashuvlar va kadrlar qo‘nimsizligiga barham berish asosiy maqsad sanaladi.

Farmonda har bir maktab reytingini hamda shu asosda ta’lim sifati bo‘yicha tuman, shahar va viloyatlar reytingini ishlab chiqish zarurligi ko‘zda tutilgan. Reyting natijalariga qarab, maktab direktorlari va o‘rinbosarlari, o‘qituvchilar, hokimlar va ularning ta’lim bo‘yicha maslahatchilari faoliyatiga baho beriladi. Shuningdek, oliy o‘quv yurtiga kira olmagan bitiruvchilarni muayyan kasb-hunar yoki tadbirkorlikka jalb etish muhim. SHu sababli 7-sinfdan o‘g‘il-qizlarning kasbga qiziqishlarini aniqlash va bosqichma-bosqich kasbga yo‘naltirish amaliyoti joriy qilinishi belgilandi. Hududdagi sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish korxonalari maktablarga biriktiriladi.



Umuman olganda, har birimizning ta'limda bo'layotgan o'zgarishlarga faol ishtirok etishimiz – insoniy burchimizdir. Ishonamizki, bu islohotlar, albatta, o'z samarasini beradi va uzlusiz ta'lim sifati yangi bosqichga ko'tariladi.